

MODALLIK KATEGORIYASINING LINGVISTIK TALQINI VA TADQIQOT TARIXI

To'xtasinova Yoqutxon Baxromjon qizi

Qo'qon davlat universiteti, tayanch doktorant.

e-mail: toxtasinovayoqutxon@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-5962-5108>

Annotatsiya.

Tilshunosligimizdagi eng murakkab va serqirra tushunchalardan biri modallik kategoriyasining lingvistik tabiati, mohiyati va tadqiqot tarixi tahlil qilinadi. Tadqiqotda obyektiv va subyektiv modallik tushunchalari, uning grammati, leksik va intonatsion vositalar orqali shakillanishi tadqiq etiladi. Shuningdek, modallik kategoriyasini ifodalashda modal so'zlarning tutgan o'rni va uning leksik-semantik imkoniyatlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: modallik kategoriyasi, predikativlik, obyektiv modallik, subyektiv modallik, modal so'zlar..

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАТЕГОРИИ МОДАЛЬНОСТИ И ИСТОРИЯ ЕЁ ИССЛЕДОВАНИЯ

Тухтасинова Ёкутхон Бахромжон кизи

Кокандский государственный университет, базовый докторант.

Аннотация.

В статье анализируются лингвистическая природа, сущность и история изучения категории модальности, являющейся одним из наиболее сложных и многогранных понятий современного языкознания. Рассматриваются понятия объективной и субъективной модальности, а также особенности их выражения с помощью грамматических, лексических и интонационных средств языка. Особое внимание уделяется роли модальных слов в выражении категории модальности и их лексико-семантическим возможностям.

Ключевые слова: категория модальности, предикативность, объективная модальность, субъективная модальность, модальные слова.

LINGUISTIC INTERPRETATION OF THE CATEGORY OF MODALITY AND THE HISTORY OF ITS STUDY

To'xtasinova Yoqutxon Baxromjon qizi

Kokand State University, Basic Doctoral Student.

Abstract.

This article examines the linguistic nature, essence, and history of the study of the category of modality, which is regarded as one of the most complex and multifaceted categories in linguistics. The research analyzes the concepts of objective and subjective modality, as well as the grammatical, lexical, and intonational means through which modality is expressed. Particular attention is paid to the role of modal words in conveying the category of modality and to their lexical-semantic potential.

Keywords: category of modality, predicativity, objective modality, subjective modality, modal words.

Kirish. Til bugun nafaqat axborot uzatuvchi vosita, balki xalqning tafakkuri, mentaliteti va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi ko'zgudir. Professor N. Mahmudov ta'riflaganidek, "Tilning mohiyati, vazifasi ko'pincha benihoya jo'n talqin etiladi. Go'yoki til — eng muhim aloqa vositasi bo'lgan ijtimoiy hodisa. Tilning aloqa vositasi ekanligi uning juda ko'plab vazifalaridan faqat bittaginasidir. Aslida til, eng avvalo, dunyoni ko'rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Ayni paytda, tilning ruhiy, estetik hodisa ham ekanligini unutmaslik lozim" [9; 12-b.]. Shu nuqtayi nazardan, biz e'tibor qaratgan tilning ana shu ichki imkoniyatlari, xususan, lisoniy tizimdagi antropotsentrik omili kuchli bo'lgan modallik va modal so'zlar nafaqat grammatik birlik sifatida, balki lingvokulturologik va lingvopoetik ko'rinishlarda ham o'rganilishi lozim bo'lgan muhim hodisalardan biri sanaladi. Ma'lumki, modal so'zlarning negiz-mohiyati modallik tushunchasiga borib taqaladi. Tilshunoslikda modallik tushunchasi munozarali masalalardan biri bo'lib, bu borada olimlar tomonidan turli fikrlar bildirilgan. "Bu tushunchani dastlab Arastu (Aristotel) mantiq ilmida qo'llagan" [19; 303-b.]. "Modallik tushunchasi fransuz tilida — *modalité*; lotincha *modus* — usul, mayl degan ma'nolarni bildiradi, tilshunoslikda esa fikrning, gap mazmunining voqelikka bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi grammatik kategoriya" [20; 605-b.], deb ta'rif berilgan. "Modallik kategoriyasi fikrning mantiqiy qurilishi bilan chambarchas bog'liq til hodisasidir" [6; 148-b.].

O'rta asr Sharq uyg'onish davri ilm-fani taraqqiyotida o'zining "Ilmlar tasnifi" asari bilan nom qoldirgan Abu Nasr Farobiy ham Arastu kabi mantiq ilmini tadqiq qilgan va eng muhim tushuncha — "kategoriyalar"ni, ya'ni harakat, vaqt,

materiya va substansiya xususidagi, shuningdek, hukm va sillogistika to'g'risidagi fikrlarni mantiq ilmining eng muhim qismiga aylantirgan. Demakki, o'rta asrning buyuk namoyandalari Arastu va Farobiy falsafa va mantiq kategoriyalarini hamda ularning modallik xususiyatlarini tahlil qilganlari yaqqol ma'lum bo'ladi. Ya'ni modallik tushunchasi mantiq ilmi bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan va uning qismi sifatida tahlil qilingan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tilshunoslikda tillarning paydo bo'lish tarixini, genealogik tasnifini yaratgan, nomlarning kelib chiqishi haqidagi ta'limotni rivojlantirgan, fenomenologiya asoschisi, mantiqshunos Leybnis ham mantiq ilmiga oid fikrlari asosida modallik kategoriyasiga mantiqiy yondashadi: "Modallik tizimiga tasdiq, mumkinlik, zaruriyat va inkor modal kategoriyalari kiradi. Unga asosan umumiy tasdiq, ayrim umumiy inkor darak va ayrim tasdiq darak gaplarning modallik xususiyati arifmetikada tabiiy sonlar yordamida izohlanadi" [7; 74-b]. Shuningdek, R. Komiljonova ham o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida dastlab modallik tushunchasi I. Kant tomonidan mantiq ilmida qo'llanilganini va quyidagicha ta'rif berilganini aytadi: "Modallik narsaning mohiyatini emas, balki uning qanday qilib tasdiqlanishini yoki inkor qilinishini anglatadi" [4; 24-b]. I. Kantning mulohazasiga ko'ra, modallik uch turga: apodiktik (zaruriy), assertorik (voqelik) va problematik (ehtimoliy) turlarga bo'linadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, modallik keng qamrovli tushuncha bo'lib, tilshunoslikda ham, mantiqda ham muhim ahamiyatga ega. Tilshunos olimlar A. Nurmonov, N. Mahmudovlar ta'kidlaganidek: "Modallik tilshunoslikning hamda mantiqning tekshirish obyektidir. Birinchisida modallik gapning eng muhim belgisi, ikkinchisida esa tafakkur shakli ko'rinishidagi hukmning muhim belgisi sifatida qaraladi" [12; 232-b]. Bizningcha, bu olimlarning modallik hodisasini ikkiyoqlama o'rganishi o'zbek tilshunosligida sintaksis va semantika masalalarini chuqurroq tadqiq etishga poydevor bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kunning zamonaviy yo'nalishlari lingvokognitiv va pragmatik tilshunoslik tamoyillariga mos kelib, modallikning keng qamrovli hodisa ekanligini tushunishga asos bo'lgan.

Zamonaviy tilshunoslikda ham "til va mantiq" munosabati yangi sahifalarni ochmoqda. J. Yoqubovning mantiq va til orasidagi uzviy semantik munosabatda namoyon bo'ladigan modallik kategoriyasi va uning ilmiy ifodalanishi tahliliga bag'ishlangan lingvistik tadqiqot ishida modallik mantiq ilmida ham, tilshunoslikda ham muhim o'ringa ega ekanligi ta'kidlanadi va quyidagicha izoh beriladi: "Tilshunoslikda modallik so'zlovchining aytilayotgan gap mazmuniga va gapning voqelikka munosabatini anglatuvchi so'zlar kategoriyasi deb ta'rif berilsa, mantiq ilmida esa modallik hukmning asosiy muhim xususiyati bo'lib, unda predmetning u yoki bu belgisi ifodalanadi. Modallik hukmda aytilgan voqelikning mazmuniga ko'ra unga beriladigan semantik tavsif: hukm zaruriy, ehtimoliy, tasodifiy, noehtimoliy kabi tushunchalarning predikat bilan subyekt orasidagi mantiqiy bog'lanishi tushuniladi" [21; 168-b]. Anglashiladiki, olim modallik kategoriyasiga til va mantiq munosabatlarining kesishuv nuqtasidagi semantik hodisa sifatida ta'rif beradi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, modallik — bu so'zlovchining obyektiv voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalovchi so'zlar kategoriyasi, ya'ni modal va modal ma'noli so'zlarga ishora qilingan bo'lsa, mantiq ilmi nuqtayi nazaridan hukmning asosiy belgisi sifatida ta'riflanib, subyekt va predikat o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish tushunchalari orqali aniqlangan. "M. Sodiqova va A. Hojiyev tildagi modallik kategoriyasiga mantiq nuqtayi nazaridan yondashadilar" [19; 344–347-b]. "A. Nurmaxanova ham modallik va baho kategoriyalarini falsafa fani ta'sirida paydo bo'lgan umumlisoniy xarakterga ega kategoriyalar", deb talqin qiladi [18; 180-b]. Shuningdek, "modallik — so'zlovchining voqelikka munosabatini aniqlab, gap tuzilishida doimo ishtirok etuvchi grammatik kategoriyadir" [11; 72–83-b], deydi. Olima modallikka ko'ra gaplarni darak, so'roq, buyruq va undov kabi turlarga ajratadi va modallik kategoriyasini grammatik jihatdan tadqiq qiladi. Modallik kategoriyasi haqida so'z borganda, avvalo, A. M. Peshkovskiyning xulosalariga e'tibor beraylik. U so'zlovchining subyektiv munosabatini aks ettiruvchi subyektiv-obyektiv kategoriya mavjudligini ta'kidlab, unga mayl, zamon, shaxs, so'roq, undov, darak, kirish so'z va uning ifodalanishi, tasdiq-inkor va boshqalarni kiritadi [13; 88–89-b]. Demak, modallik kategoriyasiga subyektiv-obyektiv jihatdan yondashuvlar ham tilshunoslikda paydo bo'la boshlaydi. Yana bir rus tilshunosi, akademik V. V. Vinogradov ham modallikni ta'riflashda subyektiv va obyektiv jihatdan yondashadi. U modallik kategoriyasini ikki asosiy qismga ajratadi: subyektiv va obyektiv modallik. Ikki turdagi modallik o'rtasidagi farq, obyektiv va subyektiv modallikning talqini bir ma'noli emasligiga qaramasdan, ushbu toifadagi ko'pgina tadqiqotlarni ajratib turadi. "Subyektiv modal noziklikni, ya'ni so'zlovchining kayfiyatini, ikkilanishini, ishonchsizligini, shubhasini, harakatlarning zarurligini, eng asosiysi, hissiy tebranishlarni ifodalovchi so'zlarga e'tibor qaratadi". Demak, olim modallikni ta'riflar ekan, avvalo, ikki qismga: obyektiv va subyektiv modallikka ajratib olib, subyektivlik mezoniga alohida urg'u beradi. Subyektiv modallikni "so'zlovchining borliqqa va o'z nutqiga bo'lgan sof emotsional-psixologik munosabatlarini ifodalovchi murakkab lingvistik hodisa" [2; 640-b] deb hisoblagan.

I. Rasulov ham modallikning ikki guruhga bo'linishini ta'kidlaydi: "Mazmunning borliqqa so'zlovchi nuqtayi nazaridan munosabati obyektiv modallikdir. Bu fe'l mayllari, sintaktik qurilish va intonatsiya yordami bilan ifoda qilinadi. Bundan boshqa subyektiv modallik ham bo'lib, bu kirish so'zlar bilan ifoda qilinib, so'zlovchi shaxsning aytilayotgan fikriga munosabatini ifoda qiladi" [14; 160-b]. Lekin bu vazifani barcha kirishlar ham bajaravermasligi ta'kidlanadi. Modallikni ifoda qiluvchi kirish iboralar so'zlovchining o'z ifodasiga qanday munosabatda bo'layotganligi bilan xarakterlanadi.

M. Zakiyev ham modal munosabatlardagi hissiy-emotsionallikka urg'u qaratadi: "Modallik faqat ma'lumotni yetkazib beribgina qolmasdan, balki shaxsiy hissiyotlarni ham ifodalaydi, masalan: qo'rquv, g'azab, hayrat, tahdid, ishonch, sevgi, g'iybat va boshqa hissiyotlar" [3; 53-b], deb ta'kidlaydi. Olim modallikni, asosan, "emotsional munosabat" orqali tushuntiradi. Bu shuni anglatadiki, tilshunoslikdagi modallik kategoriyasi nafaqat voqelikka bo'lgan obyektiv munosabatni, balki so'zlovchining o'z fikriga yoki bayon etilayotgan voqelikka bo'lgan subyektiv his-tuyg'usini ham ifodalaydi. U yana shunday deydi: "So'zlovchining munosabati va mantiqiy jihatdan bizga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadigan emotsional munosabat", ya'ni "mantiqiy jihatdan bizga qanday ta'sir qilishi" deyilganda, modal munosabat yoki modal so'zlar nafaqat ma'lumot beradi, balki tinglovchining uni qanday qabul qilishiga ham ta'sir qiladi. Shuningdek,

“Gapning modallik rang-barangligi odamlar orasidagi muloqotda juda katta ahamiyatga ega, chunki u odamlarning bir-birini tez tushunishiga yordam beradi, nutq madaniyatini oshiradi va nutqni boy, moslashuvchan, aniq qiladi” [11; 232-b]. Biz ham ushbu fikrlarga xayrixohlik bildiramiz. Negaki, modallik bugungi muloqotda shunchaki grammatik qoida emas, balki insonlar o’rtasidagi muloqot madaniyatini mustahkamlab, nutqni tushunarli va ta’sirchan qiluvchi lingvokulturologik va pragmatik quroldir. Bizningcha ham, antropotsentrik tilshunoslikda obyektiv va subyektiv modallik orasiga qat’iy chegara qo’yib bo’lmaydi, negaki modallikning har ikkala turi insonning kognitiv faoliyati mahsulidir. Inson borliqni idrok etib, u haqda hukm chiqarar ekan, bu jarayonda uning subyektiv munosabati va, albatta, ichki “men”i ustunlik qiladi. J. Lyonsning fikricha, tildan foydalanish jarayonida subyektiv modallik obyektiv modallikka qaraganda ancha keng tarqalgan [8; 334-b]. Biz ham ushbu tilshunosning fikriga qo’shilamiz va quyidagicha izohlaymiz: tilning dastlabki bosqichlarida insonlar, asosan, obyektiv modallik orqali tashqi dunyo haqidagi faktlar, umumiy qoidalar va kuzatilgan ehtimolliklarni ifodalashga ehtiyoj sezgan. Masalan, qadimda insonlar uchun muloqot, asosan, atrof-muhitni tasvirlash, xavf-xatarlar haqida ogohlantirish, kundalik ishlarni tartibga solish va shunga o’xshash ma’lumotlarni yetkazish uchun xizmat qilgan. Sodda qilib aytganda, “ovga boramiz”, “yomg’ir yog’adi” yoki “qoch, yong’in” kabi jumalarda obyektiv munosabat ustunroq bo’lgan. Jamiyat rivojlanishi aloqa munosabatlarning murakkablashuviga olib keladi. Oddiy ma’lumotlarni almashish bilan birga, insonlar o’zlarining ichki dunyosi, shaxsiy munosabatlari, his-tuyg’ulari, ishonch darajalari, niyatlari va taxminlarini ifodalashga kuchli ehtiyoj sezadi. Suhbatlar, bahs-munozaralar, kelishuvlar va norozilikni bildiruvchi holatlarda ko’proq shaxsiy nuqtayi nazar bilan yondashiladi. Albatta, subyektiv modallikdan ko’proq foydalaniladi. Subyektiv modallikni ifodalovchi so’zlardan foydalanish so’zlashuv madaniyatini ko’rsatib beradi va nutqni muloyimroq ifodalashga xizmat qiladi. Agar to’g’ridan to’g’ri ma’lumot bersak, fikrimiz biroz qo’polroq shakllanishi mumkin. Masalan, “Siz adashyapsiz” birikmasi o’rniga “Ehtimol, siz adashayotgandirsiz”, desak, o’rinli bo’ladi. Chunki “ehtimol” birligi so’zlovchining shaxsiy taxminini ifodalab, tinglovchiga nisbatan hurmatni aks ettiradi. So’zlovchi aniq bir dalilga emas, balki o’zining his-tuyg’ulari yoki sezgilariga asoslanib taxmin qilayotganini ifodalaydi. “Siz adashyapsiz” degan qat’iy jumlagi nisbatan, hozirgi murakkab ijtimoiy muloqot jarayonini taqozo etadigan jamiyatda shaxsiy fikr va munosabatlarni muloyim ifodalash ehtiyoji yuqori bo’lganligi sababli, subyektiv modallik afzal ko’riladi.

Muhokama va natijalar. Shu nuqtayi nazardan, modal so’zlar tilshunoslarning e’tiborini azaldan tortib kelgan. Olimlar modal so’zlarni turlicha nomlab, ularning ma’noviy xususiyatlarini guruhlashga harakat qilgan. Xususan, nemis va o’zbek tillaridagi modal so’zlarni chog’ishtirma tahlil qilgan S. Saidov o’zining tadqiqot ishida quyidagi ma’lumotlarni keltirib o’tgan: “N. Said va Yo’ldoshev modal so’zlarni “kirish so’zlar” – “вводные слова” deb nomlaydi” [17;48]. Ushbu qarash hozirgi zamonaviy grammatikamizdagi “kirish so’zlar” terminining fanimizga kirib kelish nuqtasi bo’lsa, ajab emas. Demak, an’anaviy tilshunoslikda qo’llanilgan “kirish so’zlar” termini hozirgi biz tushunadigan “modal so’zlar” tushunchasini ham o’z ichiga qamrab olgan. Shu bilan birga, o’zbek tilidagi modal so’zlarning alohida turkum sifatida ajratilishi haqida S. Saidov akademik V. V. Vinogradovning ilmiy xizmati va uning ishlaridan nusxa olish natijasidir, deya izoh berib o’tadi. Anglashiladiki, tilshunoslik olamida modal so’zlarni tizimli bir kategoriya (so’z turkumi) sifatida shakllantirishda bevosita V. V. Vinogradovning xizmati beqiyosdir.

Ma’lumki, “Modal so’zlarning o’rganilish tarixi uch bosqichga bo’lingan bo’lib, bu so’zlar turli davrlarda turlicha talqin qilingan: birinchi bosqichda modal so’zlar asosan ravishlar, ko’makchilar, yuklamalar, undovlar tarkibida yoki shunchaki o’zgarma so’zlar sifatida tadqiq qilingan bo’lsa, sintaktik sathda esa kirish so’zlar sifatida ko’rib chiqiladi. Ikkinchi bosqichda morfologiya bo’limidan chiqarilib, faqat kirish so’zlar, ya’ni sintaksis obyekti sifatida ko’rib chiqiladi. Uchinchi bosqichda ushbu birliklar semantik nuqtayi nazardan modal so’zlar, sintaktik sathda esa kirish so’zlar deb qaraladi” [15]. Fikrimizcha, uchinchi bosqich V. V. Vinogradov nazariyasining o’zbek tili materialida to’liq amaliyotga ko’chishi va modal so’zlarning alohida turkum hamda kirish so’z sifatida tan olinishi bilan yakunlangan bosqichdir. “O’zbek tilshunoslari orasida birinchi bo’lib Sh. Rahmatullayev bu so’zlarni modal so’zlar (модальных слов) deb atadi” [15]. Shu tariqa o’zbek tilshunosligiga bu termin kirib kelgan. Bunga qadar esa mazkur guruhga kiruvchi so’zlar tilshunosligimizda turlicha nomlar bilan nomlangan. Hozirgi tilshunoslikda modal so’zlarga quyidagicha ta’rif berilgan: “Modal so’zlar gapda anglatilgan fikrning so’zlovchi uchun qanchalik aniqligini, bu xabarni so’zlovchi qanday baholashini bildiradi. Modal so’zlar, odatda, umuman gapga tegishli bo’lib, gap bo’laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi. Shuning uchun ular gap bo’lagi ham bo’lib kelmaydi. Masalan, Mehnat hamda turmush tajribasi, hunari bo’lmagan odam ishdagi kishining o’yini, tuyg’usini anglamaydi. Ushbu gapga albatta, shubhasiz, ehtimol kabi so’zlar kiritilsa, bu gapning mazmuni o’zgarmaydi; bu so’zlar fikrning so’zlovchi tomonidan qanday baholanishini bildiradi” [16;371-b].

Biz ishimizda modal so’zlarni tadqiq etar ekanmiz, avvalo, hozirgi o’zbek adabiy tilida qaysi so’zlar funksional va semantik jihatdan modal so’zlar deb atalishini belgilab olish lozim, deb topdik. Ma’lumki, tadqiqotchi M. Mustafayeva o’z ishida 2022-yilda nashr qilingan 6 jildlik “O’zbek tilining izohli lug’ati”da berilgan **mod. s.** shartli belgisi ostida ajratilgan quyidagi 31 ta modal so’zni keltirib o’tadi: “aftidan, albatta, aniq, asli, ayniqsa, darkor, ehtimol, ehtimolki, esiz, go’rga, hartugul, koshki, lozim, mabodo, so’zsiz, tabiiy, xayr, xayriyat, xayriyatki, xullas, yaxshi, yaxshiki, yaxshisi, shekilli, shoyad, shoyadki, shubhasiz, shuningdek, chama, chamasi, chog’i” [10;20-b]. Biz esa eng so’nggi, 2023-yilda nashr qilingan 6 jildlik “O’zbek tilining izohli lug’ati”dagi **mod. s.** belgisi ostidagi yuqoridagi birliklarni lisoniy tahlilga tortdik va ularning barchasi so’nggi akademik lug’atda ham modal so’z sifatida berilganiga guvoh bo’ldik. Shuningdek, yuqoridagi modal so’zlarga qo’shimcha qilib, **mayli** so’zining ham modal so’z belgisi ostida nomlanganini e’tirof etamiz.

Xulosa.

O’zbek tilshunosligida modal so’zlarning lisoniy tabiati va tasnifi masalasida Sh. Rahmatullayevning qarashlari fundamental asos bo’lib xizmat qiladi. Ammo tilning ichki rivojlanishi va leksikografik amaliyotning takomillashib borishi natijasida mazkur turkum tarkibida muayyan lisoniy o’zgarishlar yuzaga keldi. Xususan, Sh. Rahmatullayev darsligida

modal soʻz sifatida guruhlangan ayrim birliklar zamonaviy mezonlarga koʻra, 2023-yilda nashr etilgan soʻnggi olti jildlik “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da modal xususiyatini qisman yoʻqotib, ravish yoki mustaqil kirish soʻz tarkibiga koʻchganligi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ахманова О. С. *Словарь лингвистических терминов*. 2-е изд., стер. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – 608 с.
2. Виноградов В. В. *Русский язык*. – Москва: Высшая школа, 1986. – 640 с.
3. Закиев М. З. *Синтаксический строй татарского языка*. – Казань: Изд-во Казанского университета, 1963. – С. 53.
4. Камилъджанова Р. *Модальные слова в современном узбекском языке*: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. – 24 с.
5. Lafasov O'. *Dialogik nutqda subyektiv modallikning ifodalanishi*: filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1996. – 148 b.
6. Лейбниц Г. В. *Сочинения*: в 4 т. Т. 3. – Москва: Мысль, 1984. – С. 74.
7. Lyons J. *Introduction to Theoretical Linguistics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1968. – 334 p.
8. Mahmudov N. *Zarif soʻz ziyorati*. – Toshkent: Bookmany Print, 2025. – 240 b.
9. Mustafayeva M. B. *Ingliz va oʻzbek tillarida modal soʻzlar tipologiyasi, tarjimasi, leksikografik talqini*: filol. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. – Qarshi, 2025. – 56 b.
10. Нурмаханова А. Н. *Типы предложений по модальности и интонации в тюркских языках*: дис. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1966. – С. 72–83.
11. Nurmonov A., Mahmudov N., Axmedov A., Solixoʻjayeva S. *Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi*. – Toshkent, 1992. – 232 b.
12. Пешковский А. М. *Русский синтаксис в научном освещении*. – Москва, 1956. – С. 88–89.
13. Rasulov I. *Hozirgi oʻzbek adabiy tilida bir sostavli gaplar*. – Toshkent: Fan, 1974. – 160 b.
14. Саидов С. *Модальные слова в немецком и узбекском языках*: дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1964.
15. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. *Hozirgi oʻzbek adabiy tili*. – Toshkent. (*Nashr yili va nashriyoti koʻrsatilmagan*.)
16. Fitrat. *Sarf*. – Samarqand–Toshkent: Oʻznashr, 1930. – 48 b.
17. Qozoqova N. *Badiiy matn pragmatikasi (Gʻafur Gʻulom nasriy asarlari misolida)*: monografiya. – Namangan, 2022. – 180 b.
18. *Oʻzbek Sovet ensiklopediyasi*. 14 jildlik. 7-jild. – Toshkent, 1976. – B. 303.
19. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. *Hozirgi oʻzbek adabiy tili*. Т. 1. – Toshkent, 1966. – B. 344–347.
20. *Oʻzbek tilining izohli lugʻati*. III jild. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 605 b.
21. Yoqubov J. *Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari*. – Toshkent: Fan, 2005. – 168 b.